SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/1 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li*
O‘ZBEKISTONDA ALOHIDA TA‘LIM EHTIYOJIGA EGA BO‘LGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ........ 9-16

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН ........ 17-22

*Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘li*
AFRIG’IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI ........ 23-26

*Исмоилова Нигорахон Усмонжановна*
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ ........ 27-34

*Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи*
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ ........ 35-40

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Zhao Rong*
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA ........ 41-48

*Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o‘g‘li*
FARG‘ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH ........ 49-58

*Malikova Gulhayo Turdali qizi*
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI ........ 59-64

*Maxmudov Anvarjon*
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI ........ 65-75

*Мухитдинов Ахрор*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕТЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ ........ 76-82

*Jurayev Xusan Atamuratovich*
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 83-89

*Butunov Shaymardan Berdiyarovich*
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL ........ 90-96

*Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi*
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO’LLASH ........ 97-103

*Содиқов Анвар*
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҚОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ ... 104-116

*Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich*
O‘ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILGAN OLIY TA’LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI ........ 117-122

**_09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ_**

*Эшонкулова Нуржахон Абдужабборовна*
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ ........ 123-130

*Khalilova Shakhlo Abdurashitovna*
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS ........ 131-136

**_10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ_**

*Saidov Hakim G‘ofurovich*
VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI ........ 137-141

*Jabborov Jamshid Azimovich*
MA’NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA ........ 142-148

*Соатов Ғайрат*
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ ........ 149-156

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT ........ 157-161

*Wang XiaoYu*
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY ........ 162-170

*Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna*
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM ........ 171-175

*Aripova Saodat Taxirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 176-181

*Xudoyqulov Behzod Abbosovich*
ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O’ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI ........ 182-187

*Mavlonova Gulnora Abdig’ani qizi*
ADABIYOTDA QO’LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN ........ 188-192

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI ........ 193-197

*Djurayeva Orzigul Gafurovna*
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O‘RGANILISHI ........ 198-204

*Gafarova Shahnoza Hayrullayevna*
TIL VA TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 205-209

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ ........ 210-215

*Sarvinoz Sunnatillaeva*
PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN UZBEKISTAN ........ 216-222

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich*
FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 223-233

*Shokirov Poʻlat*
TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING USLUBIY ASOSLARI ........ 234-238

*Begmatova Dilnoza Muxtarovna*
JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI ........ 239-243

*Toʻrayev Panji Toʻxtayevich*
MILLIY KURASH MASHGʻULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISH ........ 244-248

*Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo’ja o’g’li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI YARATISH ........ 249-256

*Egamberdiyev Javlonbek*
TA’LIM MUASASSALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI ........ 257-260

*Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich*
ZAMONAVIY TA’LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING KOMPETENTLIGI ........ 261-265

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/1(4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Gafarova Shahnoza Hayrullayevna**
"Oʻzbek tili va adabiyoti" kafedrasi: v.b. dotsenti
Toshkent davlat texnika universiteti

## TIL VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Annotatsiya.** Maqolada til va ta'lim muammolari va uning echimlari zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida ko'rib chiqilgan. Tilini anglagan holda, ongli ravishda oʻrganish uchun lisoniy bilimlarning oʻrni favquloddadir, bu bilimlarsiz, ulardan tamoman bexabar holda ona tilini oʻrganishning imkoni yoʻq. Mutaxassislar til kompetentsiyasining ikki asosiy unsurdan, ya'ni nutqiy tajriba va til haqidagi bilimlardan tashkil topishini aytarkan, bu bilimlarning zaruriyligini ta'minlaydilar. Til ta'limining maqsadida koʻzda tutilgan ayni kompetentsiyasini shakllantirish, til haqidagi bilimlarsiz mumkin emas

**Kalit soʻzlar**: til va ta'lim, yondashuv, kasbiy va shaxsiy xususiyatlar, muammo va yechimlar.

**Gafarova Shakhnoza Khayrullayevna**
Associate Professor of the Department "Uzbek language and literature"
at the Tashkent State Technical University

## LANGUAGE AND EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

**Abstract.** The article is devoted to examines the problems of language and education and their solutions in the modern educational process. Linguistic knowledge is essential for conscious learning of the language, without this knowledge, it is impossible to learn the mother tongue without being completely aware of it. Experts say that language competence consists of two main elements, that is, speaking experience and knowledge about the language, and they ensure the necessity of this knowledge. It is impossible to form the same competence, which is intended for the purpose of language education, without knowledge about the language

**Keywords:** language and education, approach, professional and personal characteristics, problems and solutions.

**Гафарова Шахноза Хайруллаевна.**
Доцент кафедры «Узбекский язык и литература»
Ташкентский государственный технический университет.

## ЯЗЫК И ОБРАЗОВАНИЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы языка и образования и их решения в современном образовательном процессе. Лингвистические знания необходимы для сознательного изучения языка, без этих знаний невозможно выучить родной язык, не осознавая его полностью. Эксперты утверждают, что языковая компетентность состоит из двух основных элементов: опыта разговорной речи и знаний о языке, и они обеспечивают необходимость этих знаний. Невозможно сформировать ту же компетентность, которая предназначена для целей языкового образования, без знаний о языке.

**Ключевые слова**: язык и образование, подход, профессиональные и личностные характеристики, проблемы и решения.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N29

Bugun mamlakatimizda “Yangi Oʻzbekiston – yangi Renessans sari” shiori ostida taʼlim sohasida ulkan oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, Maktabgacha taʼlim tizimida 6-7 yoshli bolalar uchun standart joriy etildi, umumiy oʻrta taʼlim 11 yil etib belgilandi, oʻrta maxsus taʼlim uch yildan ikki yilga tushirildi, ikki yillik kasb-hunar maktablari tashkil etildi. Oliy taʼlim tizimida sirtqi, kechki, masofaviy taʼlim shakllari joriy etildi. Kredit modul tizimi joriy etilmoqda, oliy taʼlim tizimi qamrovi oshib, xalqaro andozalarga yaqinlashmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori ilovasining 4-bandida “Maktabgacha, umumiy oʻrta, professional va oliy taʼlim oʻquv dasturlarining uzviyligini taʼminlash” topshirigʻi belgilangan. Unga koʻra Taʼlim inspeksiyasi hamda Maktabgacha taʼlim, Xalq taʼlim va Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari tomonidan fan dasturlarining mazmun mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini taʼminlash hamda taʼlim oluvchilarda shakllanishi zarur boʻladigan bilim, koʻnikma va kompetentliklar darajasini belgilash vazifalari muhim oʻrin tutmoqda [1].

Bugun mamlakatimizda boshlangan koʻlamli va shiddatli islohotlar fan va taʼlim sohalari, xususan, til va adabiyot taʼlimining samaradorligi uchun ham xizmat qilmoqda. Til insoniyat tarixida, xalq tamaddunida qanchalik bemisl ahamiyatga molik boʻlsa, uni oʻrganish, uning sinoatlari bilan oshno boʻlish shunchalik favqulodda zaruriy yumushdir. Olmon olimi V.Gumboldt aytganidek, “Er yuzidagi tillarning farqliligi ulardagi tovushlarning farqliligida emas, balki bu tillarda dunyoni koʻrishning farqliligidadir”. Tafakkur ham, tasavvur ham, hatto taxayyul ham tillarga koʻra farqli jihatlarga ega [2].

Bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til mavjud boʻlsa, ularning har biri muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning asosidir. Ularning har biri mutlaqo oʻziga xos sir-u asrorlar mujassam boʻlgan bebaho boylik. Shuning uchun ham bu boylik sinoatlarini oʻrganish, bu sinoatlarni bolalikdan, yoshlikdan egallash jamiyatda qadim davrlardan aql egalarini oʻylatgan. Yer yuzidagi eng koʻhna muassasalardan boʻlmish qadim Sharq bagʻrida tavallud va kamol topgan. Eramizdan oldingi uchinchi mingyillikning boshlarida, demakki, bundan besh ming yillar burun qadimgi Shumerda maktablar faoliyat koʻrsatgan va bu maktablarning taʼlim dasturlarida ikki asosiy tayanch mavjud edi. Ularning biri matematika, ikkinchisi esa ona tili hisoblangan. Ularning biri qorin qaygʻusi ehtiyoji uchun, ikkinchisi – til taʼlimi esa ruh, yaʼni qadr qaygʻusi talabini qondirishga xizmat qilgan. Albatta, bugun ham shunday, maktabdir, oliy maktabdir, ona tili taʼlimining bosh moʻljali inson ruhiy, maʼnaviy olami. Maqsad, avvalo, millat qiyofasi va maʼnaviyatini salomat saqlashdan iborat.

Yangi maktab qurish jarayonida mustamlakachilik qaramligidan xalos boʻlgan davlatlar katta qiyinchiliklarga duch keldilar, ular orasida til masalasi alohida oʻrin tutdi. Mustamlakachilik davrida Gʻarbiy Yevropa taʼlim tizimi koʻplab mazlum xalqlarga oʻz ona yurti tilida oʻqitiladigan taʼlim tizimi joriy etildi. Mustaqillikka erishgach, ozodlikka chiqqan mamlakatlarning demokratik kuchlari maktab va kollejlarda taʼlimni milliy tillarga oʻtkazish choralarini koʻrishadi, bu esa til va taʼlim muammolariga olib keladi. Taʼlim tili muammosi Oʻzbekiston maktablari uchun juda murakkab va dolzarbdir. Koʻp millatli davlatimizda 10 dan ortiq til va lahjalar mavjud, shu tariqa maktablarda taʼlim tili oʻzbek, rus, qoraqalpoq va baʼzi viloyatlarda tojik, qozoq tilarida darslar olib boriladi [3]. Oʻzbekiston mustaqillikka erishilishi bilan taʼlim tili muammosini demokratik asosda hal etish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Aholining quyi qatlamlariga savodxonlikni joriy etish, oʻquv va tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish, taʼlimni tark etish va takrorlash / taʼlimning milliy tilda oʻtkazilishi bilan ular oʻquvchilarning ona tilida oʻqish imkoniyatiga ega boʻlishlari uchun harakat boshlangandi va bu ishlar hali ham davom etmoqda.

Maktab amaliyotida til taʼlimi favqulodda muhim ahamiyatga molik. Faqat ona tili taʼlimida maqsad tildan tafakkurga qarab borish boʻlsa, noqarindosh til taʼlimida taʼlim mantigʻi tafakkurdan tilga olib boradi.

Zamonaviy maktabda, xususan, oʻqitish tili muammosini hal qilishda sodir boʻlayotgan jarayonlarni oʻrganish, mamlakatimizda taʼlimni rivojlantirishning obyektiv tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi, bu esa bugungi kunga kelib oʻzbek pedagogikasining muhim va dolzarb vazifasidan biri boʻlib kelmoqda.

Shunday qilib, jamiyatda roʻy berayotgan oʻzgarishlar tilning rivojlanishini tezlashtirishga, uning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirishga yoki aksincha, uning takomillashuvini sekinlashtirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratadi. Xalqning zulmi uning tilini taqiqlash yoki buzish bilan birga keladi, qaramlikdan xalos boʻlish milliy tilning funksiyalarini kengaytirishga olib keladi [2].

Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik, ekspluatatsiya va zulm mavjud jamiyatda millatlar va tillar tengsizligi hukm suradi. Imperializm va mustamlakachilik hukmron xalqlarning tillarini boshqa xalqlarga singdirish va zaif, mazlum millat va millatlarning tillarini bostirish bilan tavsiflanadi. Mazlum xalqlarni zulmatga, jaholatga, huquqsizlikka mahkum etgan kapitalizm milliy tillar taraqqiyotida ham ortda qolmoqda. Ushbu tillarni qoʻllash doirasi faqat kundalik muloqot bilan cheklangan. Ishlab chiqarishda, fanda, madaniyatda, taʼlimda hukmronlik qiluvchi xalqning tili asosiy rol oʻynaydi [3].

Tillarning rivojlanishi va faoliyatidagi tub oʻzgarishlar zamonaviy jamiyatda sodir boʻladi. Xalqining tili savodsizlikka barham berish, qoloqlikka qarshi kurash, shaklan milliy va mazmunan sotsialistik madaniyatni yuksaltirishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda til muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish mamlakatning milliy til masalasi boʻyicha taʼlimotining izchil va qatʼiy amalga oshirilishi tufayli mumkin boʻldi.

A. Qodiriy mamlakatda bir millatga boshqa millatdan ustunlik beradigan majburiy davlat tili deb eʼlon qilinishiga qatʼiy qarshi chiqdi. Davlat tilining mavjudligi, uning fikricha, tillardan birini davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida foydalanish uchun majburiy ravishda majburan joriy etishni nazarda tutadi deb taʼkidlagan. Shu tariqa, majburiy davlat tili, qoida tariqasida, davlatda yashovchi xalqlarning milliy tuygʻularining buzilishiga, oʻzaro ishonchsizlik va begonalashishga olib kelishini ishonchli isbotlab berdi[4]. Chunki "madaniyat" haqida qanchalik goʻzal iboralar aytmang, majburiy davlat tili bilan bogʻliq. majburlash bilan, bolgʻa bilan… Majburlash /tayoq/ esa faqat bir narsaga olib keladi: u buyuk va qudratli oʻ tilining boshqa milliy guruhlarga kirishini qiyinlashtiradi va eng muhimi, dushmanlikni kuchaytiradi, million yangi ishqalanish, tirnash xususiyati, oʻzaro tushunmovchilik va hk. ..."[5].

Hozirda mamlakatimizda milliy madaniyat va tilni rivojlantirishda, shaxs shaxsini shakllantirishda ona tiliga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Bu esa davlatda yashovchi barcha xalqlarga oʻz ona tilida taʼlim olish imkoniyatini berishni, aholining madaniy darajasini oshirishning ajralmas sharti deb hisobladi. Biroq, taʼlim tili muammosini demokratik asosda hal qilish davlatda yashovchi barcha millatlar tillarining teng va erkin rivojlanishi sharti bilan mumkin.

Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, agar iqtisodiy, maʼmuriy va madaniy sohalarda barcha tillarning erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratilsa, har bir xalqning ona tilidagi maktablarning keng tarmogʻi joriy etilsa, izchil demokratik respublikada xalq qaysi tilda gapirish foydali va qulay ekanligini oʻzlari tezda tushunadilar [1]. Har qanday tilni tadqiq qilishda, uni oʻrganishda bu muhtasham hodisa faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalq ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi hodisa sifatida qaralishi zarur. Til oʻqituvchilari buni hamisha yodda tutmoqlari maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda ular faqat darsliklar bilan cheklanmasdan sohaga daxldor adabiyotlardan yetarli darajada xabardor boʻlishlari kerak.

Taassuf bilan aytish lozimki, ayniqsa, keyingi yillari maktab ona tili taʼlimida grammatika masalalarining berilishiga gʻashlik bilan qarash, grammatikani, taʼbir joiz boʻlsa, ona tili darslaridan tamoman quvgʻin qilishga huda-behuda urinish koʻzga tashlanmoqda. Toʻgʻri, ona tili darslarida grammatikaga keragidan ortiq oʻrin berish maqsadga muvofiq emas, ammo undan tamoman voz kechish ham maqsadga olib bormaydi. Grammatika va mantiq har qanday nutq tirikligining tayanchi, har qanday nutq sogʻlomligining zamini, bu ikki tushuncha va ularning metin qoidalari har qanday nutqni tutib turuvchi sinchlar silsilasidir. Ulugʻ donishmand bobomiz Forobiy grammatika va mantiq ilmining favqulodda ahamiyati haqida quyidagilarni qayd etgan: “Grammatika odamlar nutqini toʻgʻrilagani kabi– u shuning uchun ham vujudga kelgandir – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin boʻlgan joyda tafakkurni toʻgʻri yoʻldan olib borish uchun aqlni toʻgʻrilab turadi. Grammatikaning tilga va til ifodalariga boʻlgan munosabati mantiq ilmining aql va aqliy tushunchalarga boʻlgan munosabati kabidir. Grammatika har doim til ifodalarida xatolar kelib chiqishi mumkin boʻlganda, tilning oʻlchovi boʻlganidek mantiq ham har doim aqliy tushunchalarda xato kelib chiqishi mumkin boʻlganda, aql oʻlchovidir”. Grammatika va mantiqni bilgan, his qilgan odamgina toʻgʻri va solim nutq tuzishi mumkin, aks holda ayrim “mutaxassislar” kabi boshqa til qolipidagi “til tashuvchilari” qabilidagi birikmalarni ishlataveradi, bunday ifodaning oʻzbekchasi “til egasi” yoki “til sohibi” tarzida boʻlishi lozimligi uning xayoliga ham kelmaydi. Chinakam mustaqil, ijodiy tafakkurni grammatikasiz, faqat soʻz yoki iboralarni yodlatish, matn oʻqitish orqaligina shakllantirishning aslo imkoni yoʻq. Ona tili oʻqitish samaradorligini oshirish, savodxonlikni yuksaltirish borasidagi ayrim mantiqli-mantiqsiz takliflarning bayon qilinayotganligi, darsliklar bilan bogʻliq antiqa-antiqa iddaolarning ilgari surilayotgani taassuflanarlidir. Kimdir “Ona tili” darsliklarida mashqlarning koʻpligidan yozgʻirsa (axir, darslikdagi mashqlarning barchasi ustida ishlash shart emas!), kimdir tinish belgilarini tejamkorlik asosida qoʻllashni taklif qiladi, yaʼni, masalan, koʻchirma gapli qoʻshma gapni Juda toʻgʻri qilibsan deb uning soʻzini boʻldi chol tarzida tinish belgilarsiz yozish lozimligini asoslashga tirishadi, bunga asos qilib arab yozuvida tinish belgilari boʻlmaganligini, ular rus yozuvidan “koʻchirilgan”ligini roʻkach qiladi. Albatta, bu kabi iddaolarning ona tili taʼlimini yaxshilash uchun sariq chaqalik qimmati yoʻq… [3].

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak, yangi Oʻzbekiston til va taʼlim muammosi va uning yechimlarini taʼminlashning ahamiyati shundaki, u ertangi kun egalari barkamol shaxs boʻlib rivojlanishi, raqobatbardosh muhitda oʻz oʻrnini topa oladigan, mantiqiy fikrlay oladigan, XXI asr amaliy kompetensiyalariga ega boʻladigan yoshlarga sifatli taʼlim va tarbiya berish tizimini yaratishga hissa boʻlib qoʻshiladi, deb hisoblaymiz.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. https://lex.uz/docs/-5085887// Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son
2. Begimqulov U. Sh. O’zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining ayrim jihatlari. - Toshkent. 2022.
3. Mahmudov N. Til va ta’lim muammolari// "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal. № 5 (19) / 2017.
4. Погосова Н. О. (2022). Актуальные проблемы обучения второму иностранному языку и способы их решения. Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков, (18), 294-298.
5. Sharipov N.D. (2023) Oʻzbekistonda zamonaviy ta’lim muammolari va ularni hal etish yoʻllari [Проблемы современного образования в Узбекистане и пути их решения]// Вестник науки и оброзования. № 1. 172-181

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/1 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).